

Date: 23rd July-2026

YOSHLARNI INTERNET ORQALI RADIKALLASHUVINI OLDINI OLISH
MEXANIZMLARINING AMALIY - HUQUQIY TAHLILI

Ochilova Sevinch Rustam qizi

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kunduzgi ta'lim "Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati" mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan 3-o'quv kursi 309-guruh kursanti

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda yoshlarning internetdan noto'g'ri foydalanishi natijasida turli xil oqimlar, jumladan radikalizm qurboniga aylanib borayotganligi, uni oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan barcha islohotlar sa'y-harakatlar hamda qo'shimcha takliflar keltirib o'tilgan.

Kalit so'z: internet, yoshlar, radikalizm, axborot mahsulotining yoshga oid toifa belgisi, manipulyativ xabarlar, axborot, media.

Аннотация: В данной статье рассматривается тот факт, что современная молодежь становится жертвой различных тенденций, включая радикализм, в результате ненадлежащего использования Интернета, все реформы и усилия, предпринимаемые для его предотвращения, а также дополнительные предложения.

Ключевые слова: Интернет, молодежь, радикализм, возрастная категоризация информационных продуктов, манипулятивные сообщения, информация, СМИ.

Abstract: This article discusses the fact that today's youth are becoming victims of various trends, including radicalism, as a result of improper use of the Internet, all the reforms and efforts being made to prevent it, as well as additional proposals.

Keywords: Internet, youth, radicalism, age-related category marking of information products, manipulative messages, information, media.

KIRISH

Hozirgi kunda raqamli transformatsiya jarayonlari jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Natijada internet makoni jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotining asosiy bo'lagiga aylanib ulgurgan. Ayniqsa yoshlarimiz ijtimoiy tarmoqning barcha platformalaridan nafaqat do'stlar bilan muloqot qilishda, balki turli xil ma'lumotlar olish va tarqatish shuningdek o'z fikrlarini erkin bayon etishda keng ko'lamda foydalanib kelishmoqda. Danah Boyd o'zining "It's Complicated: The Social Lives of Networked Teens" kitobida o'smirlarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishi bilan bog'liq keng tarqalgan stereotiplarni tanqidiy tahlil qiladi. Muallif ijtimoiy tarmoqlar o'smirlar uchun shaxsiy identitetni shakllantirish va ijtimoiy tajriba orttirish maydoni ekanini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, ota-onalar va jamiyat tomonidan qo'llanilayotgan haddan tashqari nazorat va proteksionizm o'smirlarning onlayn muloqot orqali ongli va faol fuqarolar sifatida shakllanishiga to'sqinlik qilishi qayd etiladi.¹ D.Boydning fikrlari to'g'ri, biroq bu masalani bir yoqlama emas, balki qarama-qarshi nuqtayi nazardan ham tahlil qilish lozim.

¹ Danah Boyd (2014). It's Complicated: The Social Lives of Networked Teens.

Date: 23rd July-2026

“Social learning theory. Prentice-Hall” kitobi muallifi Albert Bandura o'tkazgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, ota - onalarning farzandlarining ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishini nazorat qilishi va yoshlarning psixologik - axloqiy tavsifi o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud. Aniqroq aytadigan bo'lsak, internetdan foydalanishi ustidan ota - onasining nazorati o'rnatilgan yoshlar kibermakonda o'zining himoyasi orqali muvaffaqiyatga erishadi. Shu bilan birga ularda nafaqat ijtimoiy tarmoqning salbiy oqimlariga qarshi immunitet, balki ruhiy sog'lom dunyoqarash ham paydo bo'ladi.

Yurtboshimiz mamlakatimizda tinchlik va totuvlikni saqlash, fuqarolarning manfaatlarini muhofaza qilish mexanizmlarini takomillashtirish yo'lida amalga oshirayotgan barcha sa'y- harakatlari millat ruhini turli xil yot g'oyalar changaliga tushib qolishidan, davlat rivojlanishi yo'lida to'siq bo'luvchi omillar uning tomiriga bolta urishidan himoyalashda xizmat qilmoqda. 2024-yilning 28-noyabr sanasida o'tkazilgan “Shavkat Mirziyoyev raisligida radikalizmga qarshi kurashish va diniy ta'limni rivojlantirish masalalari bo'yicha hukumat yig'ilishi” da Prezidentimiz, “Kibermakonda tobora ortib borayotgan tahdidlar jiddiy muammo tug'dirmoqda. Chegaralar va qonunlarni tan olmaydigan radikal g'oyalar internet orqali tarqalmoqda, bu esa zaif guruhlarni, jumladan, yoshlarni noqonuniy guruhlariga jalb qilishga olib keladi. Butun jamiyat hushyor bo'lishi, din ulamolari va oqsoqollar esa to'g'ri yo'lni ko'rsatishi zarur”, deya ta'kidladi.² Amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan normativ – huquqiy normalarning maqsadi yurtimizning porloq kelajagi sari bo'lgan yo'lida to'siq bo'luvchi illatlardan, g'oyalardan muhofaza qilishdir. Ana shu porloq kelajakning poydevori bo'lgan yoshlarimiz esa oldinda turgan barcha muvaffaqiyatlarning kaliti sanaladi. Shu boisdan ularga nisbatan befarq bo'lmaslik darkor.

Demokratiya ustuvor bo'lgan davlatda har qanday munosabatlar huquqiy normalar bilan tartibga solinadi. Shu jumladan yurtimizda ham radikalizm g'oyalarini bartaraf etish, ayniqsa ularni yoshlar o'rtasida avj olishini oldini olish bo'yicha bir qator qonunchilik hujjatlari qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 2022-yil 28-maydagi “Internet jahon axborot tarmog'ida yoshlar va voyaga yetmaganlar uchun milliy kontentni rivojlantirish, ularning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyati va zararli axborotdan himoya qilish masalalari yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yuborilgan parlament so'rovi natijalari haqida”gi SQ-545-IV-sonli Qaroriga muvofiq 2022-yil 4-fevralda Internet jahon axborot tarmog'ida yoshlar va voyaga yetmaganlar uchun milliy kontentni rivojlantirish, ularning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyati va zararli axborotdan himoya qilish masalalari yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yuborilgan parlament so'roviga berilgan javobni ko'rib chiqib, bu borada muayyan ishlar amalga oshirilganini qayd etdi. Jumladan, Internet jahon axborot tarmog'i orqali yoshlarning hayotiga xavf solayotgan, ularning ongiga salbiy ta'sir qiluvchi axborot xurujlarining oldini olishga qaratilgan ijobiy ishlar olib borilgan. Yoshlarni, ayniqsa, bolalarni zararli axborotlardan himoya qilish, shu

² Shavkat Mirziyoyev (2024.11.28). “Shavkat Mirziyoyev raisligida radikalizmga qarshi kurashish va diniy ta'limni rivojlantirish masalalari bo'yicha hukumat yig'ilishi” bayonoti.



Date: 23rd July-2026



sohadagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2017-yilning 8-sentyabr kunida O'zbekiston Respublikasining "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-444-sonli Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun 6 bob 27 moddadan iborat bo'lib, uning maqsadi bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Ushbu qonunning ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-oktyabr sanasida "“Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 848-sonli qarori qabul qilindi. Qarorga ilova qilingan nizomga muvofiq har bir axborot mahsulotining yoshga oid toifasi belgisi joylashtirilishi (markalash), yoshga oid toifa belgisi bo'lmagan axborot mahsulotini tarqatish taqiqlanishi, shuningdek, yoshga oid toifa belgisi noto'g'ri tayinlangan axborot mahsuloti yoshga oid toifa belgisi bo'lmagan axborot mahsulotiga tenglashtirilishi belgilab qo'yildi. Yoshga oid toifa belgilari Nizomning 16-bandiga muvofiq quyidagi tartibda qo'llaniladi:

“7 yoshgacha” – aylana ichidagi “0+” belgisi;

“7 yoshdan” – aylana ichidagi “7+” belgisi;

“12 yoshdan” – aylana ichidagi “12+” belgisi;

“16 yoshdan” – aylana ichidagi “16+” belgisi;

“18 yoshdan” – aylana ichidagi “18+” belgisi.

Nizomdagi ushbu talablar bolalarning axborot xavfsizligini ta'minlash, bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish uchun axborot mahsulotini yoshga oid tasniflashda yoshga oid tasniflash mezonlari va axboort mahsuloti ekspertizasini amalga oshirish tartibini belgilaydi. Bunday tizim yoshlarni ularning ma'naviy hamda ruhiy yuksalishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan axborotlardan muhofaza qiladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Nafaqat ularning sog'lom va barkamol bo'lib rivojlanishi, balki salbiy illatlar oqimiga tushib qolishini oldini olishning eng samarali mexanizmidir.

Yuqoridagi qunun-hujjatlarning ijrosini ta'minlash maqsadida ko'plab seminar-treninglar ham tashkil etildi. Mazkur yig'ilishlardan biri 2025-yilning 20-24-noyabr kunlarida Farg'ona, Namangan va Surxandaryo viloyatlarida “Yoshlar orasida radikalizm va ekstremizmni oldini olish masalalari” mavzusida o'tkazildi. Treningning asosiy qismida O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi “Ijtimoiy fanlar va huquq” kafedrasi mudiri Nigora Yusupova, media axborot tarqatuvchi vosita ekanligidan tashqari, jamiyatda g'oyalar va dunyoqarashni shakllantiruvchi kuchli omil sifatida yoshlar ongiga katta ta'sir ko'rsatishini, raqamlashuv davrida internetdagi feyk yangiliklar, manipulyativ xabarlar va din niqobidagi zararli kontentlar jamiyat xavfsizligiga jiddiy tahdid solayotgani, shuningdek radikal va ekstremistik guruhlar onlayn makondan foydalanib yoshlarni hissiyot va noroziliklari orqali o'z safiga jalb etishga urinayotganini ta'kidlab o'tdi.

Shu bilan birga, O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasida “Radikallshuv va yot g'oyalarga qarshi kurashish hamda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish”

Date: 23rd July-2026



dolzarb o'n kunlik loyihasi o'tkazildi. Ushbu o'n kunlik tadbirlaridan maqsad – yoshlarni radikalizm, terrorizm, ekstremizm, soxta da'volar, g'arazli da'vatlar, axborot xurujlari, mafkuraviy tazyiqlar, ommaviy madaniyat ta'siridan himoyalash, ularda vatanparvarlik, sadoqat tuyg'ularini shakllantirishdan iborat. Tadbirlardan biri "Radikalizm g'oyalarining yoshlar ongiga ijtimoiy tarmoqlar orqali singdirilishining oldini olish usullari" mavzusiga bag'ishlandi. Ishtirokchilar bugungi kunda hech bir xalqning milliy va ma'naviy an'anasi, odatlariga to'g'ri kelmaydigan turli "urf-odatlar" ko'payayotgani, eng achinarlisi, ayrim yoshlar uning ta'siriga tushib qolayotgani, bu narsa yoshlarimizning yurish turishida, kiyinishida, o'zini tutishi-yu boshqalar bilan bo'ladigan muzokaralarida ko'zga tashlanayotgani, so'nggi paytlarda esa ma'naviyatimizga zid bo'lgan turli g'arazli kuchlar "ommaviy madaniyat" niqobi ostida yoshlarimiz ongiga salbiy ta'sir o'tkazishga harakat qilayotgani to'g'risida o'z fikr-mulohazalarini bildirdilar.

Yuqoridagi kabi tadbirlar, seminar-treninglar faqat yurtimiz mutaxassislari ishtirokida o'tkazilmoqda desak adashgan bo'lamiz. Ushbu sohada ham turli davlatlar va ularning tajribali ekspert-mutaxassislari bilan hamkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik tashkilotining Toshkentdagi vakolatxonasida "Markaziy Osiyo mamlakatlarida yoshlarning radikallashuviga qarshi kurashish bo'yicha sa'y-harakatlarni birlashtirish" mavzusida xalqaro davra suhbatini bo'lib o'tdi. Mazkur tadbirda Qozog'iston, Tojikiston va O'zbekistondan ommaviy axborot vositalari, nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari, blogerlar, ekspertlar ishtirok etdi. Tadbirda so'zga chiqqan O'zbekiston Bosh prokurori o'rinbosari Svetlana Ortiqovanning ta'kidlashicha, radikallashuvga qarshi kurashish nafaqat davlatning, balki jamiyatning, ommaviy axborot vositalarining, yoshlarning ham vazifasidir. Davra suhbatida ta'kidlanganidek, BMT ma'lumotlariga ko'ra, radikallashgan yoshlarning 80 foizga yaqini ekstremistik g'oyalarga birinchi bo'lib duch keladi. Radikal kontentni tarqatish uchun Telegram, Instagram va Tik Tok kabi platformalardan faol foydalanilmoqda. Radikal guruhlar ta'sirida bo'lgan yoshlarning 60 foizi yolg'izlanish, tushkunlik yoki o'z shaxsiyatini anglamasdan aziyat chekadi. Bu ularni manipulyatsiyaga qarshi himoyasiz qiladi. Markaziy Osiyoda yoshlar o'rtasidagi ishsizlik 15 foizdan oshadi, bu esa og'ir hayotiy vaziyatdan "chiqish yo'lini"ni taklif qilayotgan ekstremistlar uchun qulay sharoit yaratmoqda. Eng e'tiborli jihati shundaki, tadbirda Qozog'istonlik ekspert Zamir Tuleshev axborot kompaniyalarini tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar berdi. U yoshlar uchun tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va o'quv seminarlarini o'tkazishga qaratilgan multimedia kontentidan foydalanishni taklif qildi. – Biz yoshlar tilida gapirishimiz, ommabop ijtimoiy tarmoqlar va podkastlar, hikoyalar va qisqa videolar kabi formatlardan foydalanishimiz kerak. Radikal g'oyalar xavfini tushunish uchun yoshlarni ochiq muloqotga jalb qilish muhim, - dedi Zamir Tuleshev. Shundan so'ng Jurnalistlarni qayta tayyorlash markazi direktori Gulnora Bobojonova yoshlarning radikallashuvi mintaqa xavfsizligiga tahdidga aylanib borayotganini alohida ta'kidlab, buzg'unchi g'oyalar tarqalishining oldini olishda jurnalistlarning o'rnini haqida to'xtaldi. – Ommaviy axborot vositalari ham radikallashuv vositasi, ham unga qarshi kurashda kuchli vosita bo'lishi mumkin. Jurnalistlar bunday

Date: 23rd July-2026

mavzularni yoritishda o'z mas'uliyatini anglashi, nozik mavzular bilan professional va axloqiy jihatdan ishlay olishi muhim, - dedi Gulnora Bobojonova.

Bu kabi yig'ilishlar, seminar-treninglar, turli xil davra suhbatlaridan ko'zlangan asosiy maqsad yosh avlodning ongini zararli "virus"lardan himoya qilishdir.

Yoshlarni internet orqali radikallashtirishdan himoya qilish bugungi globallashtirish va raqamli axborot oqimi kuchaygan sharoitda dolzarb masalalardan biridir. Shu bois bu yo'nalishda profilaktik mexanizmlarni kompleks, tizimli va uzluksiz asosda takomillashtirish talab etiladi. Birinchidan, ta'lim tizimida media va axborot savodxonligini oshirish, yoshlarning tanqidiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish zarur. Ikkinchidan, internet makonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib etuvchi sifatli hamda ta'sirchan kontent yaratish va keng ommalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Uchinchidan, ijtimoiy tarmoqlarda zararli va ekstremistik mazmundagi materiallarni aniqlash hamda cheklash bo'yicha monitoring tizimini kuchaytirish lozim. Shu bilan birga, oila, ta'lim muassasalari va tegishli tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, yoshlar bilan manzilli profilaktik ishlarni yo'lga qo'yish hamda ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish radikallashtirish xavfini kamaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Mazkur chora-tadbirlarni izchil va o'zaro uyg'un holda amalga oshirish yoshlarni zararli g'oyalar ta'siridan asrash, ularning sog'lom dunyoqarashini shakllantirish va jamiyat barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Taniqli olim F. Madrahimova shunday yozadi: "Axborot orqali shakllantirilayotgan g'oyaviy ta'sir, oshkora mafkuraviy tazyiq oldida hatto qudratli davlatlar ham qiyin ahvolga tushib qolmoqda. Axborotlashgan ta'sir an'anaviy xavf- xatarlar – terrorchilik, yadroviy qurollarning ishlatilishi, ekologik muammo va boshqa muammolardan farqli o'laroq ko'zga ko'rinmaydi, chegara bilmaydi, uzoq vaqt mobaynida singib boradi. Bugungi kunda hech narsadan tap tortmaydigan axborotlar ta'siri tufayli turli davlatlar aholisi kayfiyati, ruhiyati, dunyoqarashi va hatti-harakatlarida tub o'zgarishlar yuz berganligiga ko'plab misollar keltirish mumkin"³.

Yuqorida bayon etilgan taklif va tavsiyalar shuni ko'rsatadiki, yoshlarni internet orqali radikallashtirishdan himoya qilish masalasi izchil, tizimli va hamkorlikka asoslangan yondashuvni talab etadi. Mazkur yo'nalishda ta'lim, oila, fuqarolik jamiyati institutlari hamda vakolatli davlat organlarining o'zaro muvofiqlashtirilgan faoliyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yoshlarning media va axborot savodxonligini oshirish, ularning mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, shuningdek, internet makonida ijobiy va ma'rifiy kontent ulushini kengaytirish radikallashtirishga qarshi samarali mafkuraviy himoya vositasi bo'lib xizmat qiladi. Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, profilaktik mexanizmlarni doimiy ravishda takomillashtirib borish, zamonaviy axborot tahdidlariga moslashuvchan choralarni qo'llash va yoshlar bilan manzilli ishlash orqali ularni zararli g'oyalar ta'siridan asrash, jamiyat barqarorligi hamda taraqqiyotini ta'minlash mumkin.

³ Madrahimova F. Axborotlashgan davr va "ommaviy madaniyat" tahdidlari // . – Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari 2013. 1-son B. 146



Date: 23rd July-2026

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. To'rtinchi hokimiyat. O'zbekiston Respublikasining qonunlari, qarorlari va boshqa hujjatlari to'plamlari. Toshkent.:Mehnat, 2025. – B.7.
2. Danah Boynd (2014). It's Complicated: The Social Lives of Networked Teens.
3. Shavkat Mirziyoyev (2024.11.28). “Shavkat Mirziyoyev raisligida radikalizmga qarshi kurashish va diniy ta'limni rivojlantirish masalalari bo'yicha hukumat yig'ilishi” bayonoti.
4. Madrahimova F. Axborotlashgan davr va “ommaviy madaniyat” tahdidlari //. – Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari 2013. 1-son B. 146
5. Abdiyeva Dilshoda. O'zbekistonda milliy internet media siyosatini tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilish mexanizmlari: muammo va vazifalar. 2023
6. B.F.Rayimqulov. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning ijtimoiy munosabatiga ijobiy va salbiy psixologik ta'sirlari. 2025
7. K.M.Irisbayeva. Yoshlar ijtimoiy psixologik moslashuvining konseptual negizlari. 2025